

NUKUS SHAHRINI KO'KALAMZORLASHTIRISHDA MANZARALI DARAXT-BUTA TURLARINI O'RGANISH

N.B.Kamalova, S.M.Urazbaeva

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasini ko'kalamzorlashtirishda mavjud daraxt-buta turlarining qaysi oila va turkumga mansubligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasini ko'kalamzorlashtirishda mavjud daraxt-buta o'simliklarning 18 oila, 32 turkumga mansub 57 tur bor ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: daraxt-buta, oila, turkum, ko'kalamzorlashtirish, ninabarglilar, yaproq barglilar, Pinus, Juniperus, Acer.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida mahalliy va introduksiya qilingan manzarali daraxt-butalarni tanlashdan avval joyning tabiiy va geografik sharoitlarini e'tiborga olishimiz kerak. Sababi har bir hududning sharoitlari har xildir (kuchli sho'rlangan, o'rtacha va kuchsiz sho'rlangan, tekisliklar va notekis to'qayzorlardan iboratdir). Bunday erlarda ko'kalamzorlashtirish uchun mahalliy va introduksiyalangan daraxtlarni tanlash chuqur bilim va tajribalarni talab qiladi [3].

Nukus shahrida ko'kalamzorlashtirish maqsadida daraxt-buta o'simliklarini o'tqazish, ulardan foydalanish 1932-1934 yillardan boshlangan. 1933 yili Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'chat etishtiruvchi tashkilotlarning ilmiy izlanish bo'yicha birinchi ilmiy konferentsiyasi bo'lib o'tgan. Konferentsiyada qatnashgan olimlar Qoraqalpog'istonga oq akatsiya, gledichiya, Kanada teragi, zarang turlari, shumtol turlari, do'lana va boshqa daraxt-butali o'simliklarni ekishni tavsiya etgan. Konferentsiyada tavsiya qilingan daraxt-butali o'simliklarning turlarini respublikaning o'rmon xo'jaliklari ko'chatxonalarida ekib shahar va qishloqlarni ko'kalamzorlashtirishda keng tadbir etaboshladi va 1939-1940 yillarda Nukus shahrida 66000 ta daraxt-buta ko'chatlari o'tqazildi. Shahar ichida madaniyat va dam olish bog'lari tashkil etildi. Shahar atrofiga shamol va changdan himoya qilish maqsadida o'rmon polosalari barpo etildi [5].

Hozirgi vaqtda obodonlashtirish tashkilotlari yovvoyi daraxt va butalardan ekish materialini o'stirmaydilar. Biroq so'ngi yillarda *Elaeagnus angustifolia*, *Populus* turlari, *Tamarix*, *Salix babylonica* va *Halimodendron* ko'chatlarini etishtirish yo'lga qo'yilgan. Eng kam miqdordagi turlar Orol dengizining qurigan tubini to'ldirish uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ularning aksariyati mahalliy floraning vakillaridir.

Qoraqalpog'istonning qishloq xo'jaligi landshaftlari sharoitida daraxtlarning nisbatan ko'p turlaridan foydalanishni tavsiya etamiz. Panellar, ustunlar, kanallar,

zovurlar va kollektor tarmoqlari, shuningdek yo‘llar bo‘ylab 57 turdan foydalanish tavsiya etiladi.

Ilmiy tadqiqotimiz natijasida tuman va shaharlarning asosiy ko‘cha bo‘ylari va dam olish bog‘laridagi asosiy daraxt-buta o‘simliklarning 18 oila, 32 turkumga mansub 57 tur bor ekanligi aniqlandi. Ularning ichidan asosiy ninabargli 6 turi, yaproqbarglarning 51 turi aniqlandi (1-jadval) [1, 2].

1-jadval

Nukus shahri sharoitida mavjud asosiy daraxt-buta turlari

Oila (lotincha nomi)	Turkum (lotincha nomi)	Tur (lotincha nomi)	Hayotiy shakli
Cupressaceae	Juniperus	Juniperus virginiana	daraxt
		Juniperus sabina	buta
	Thuja	Thuja occidentalis	daraxt
	Platigladus	Platigladus orientalis	kishi daraxt
Pinaceae	Pinus	Pinus Pallasiana	daraxt
		Pinus eldarica	daraxt
Aceraceae	Acer	Acer ginnala	daraxt
		Acer tataricum	kishi daraxt
		Acer campestre	daraxt
		Acer negundo	daraxt
Oleaceae	Fraxinus	Fraxinus excelsior	daraxt
		Fraxinus pensylvanica	daraxt
		Fraxinus potamophylla	daraxt
		Fraxinus viridis	daraxt
		Fraxinus syriaca	daraxt
	Ligustrum	Ligustrum vulgare	buta
Fabaceae	Sophora	Sophora japonica	daraxt
	Gleditsia	Gleditsia triacanthos	daraxt
	Robinia	Robinia pseudoacacia	daraxt
	Caragana	Saragana arboressens	buta
	Amorfa	Amorfa fruticose	buta
Bignoniaceae	Satalra	Satalra speciosa	daraxt
Moraceae	Morus	Morus alba	daraxt
		Morus nigra	daraxt
		Morus rubra	daraxt
	Maclura	Maclura aurantiasa	daraxt
Salicaceae	Salix	Salix australior	daraxt
		Salix alba	daraxt
		Salix babylonica	daraxt
		Salix viminalis	daraxt
		Salix songorica	daraxt
	Populus	Populus alba	daraxt
		Populus diversifolia	daraxt

		Populus pruinosa	daraxt
		Populus ariana	daraxt
		Populus canadensis	daraxt
		Populus bolleana	daraxt
Elaeagnaceae	Elaeagnus	Elaeagnus orientalis	daraxt
		Elaeagnus angustifolia	daraxt
	Hippophae	Hippophae rhamnoides	buta
Simarubaceae	Ailantus	Ailanthus altissima	daraxt
Ulmaceae	Ulmus	Ulmus pinnato-ramosa	daraxt
		Ulmus densa	daraxt
Berberidaceae	Berberis	Berberis integgerima	buta
Vuxaseae	Vuxus	Vuxus sempervirens	buta
Rosaceae	Malus	Malus domestica	daraxt
	Pyrus	Pyrus communis	daraxt
	Crataegus	Crataegus altaica	daraxt
	Cydonia	Cydonia oblonga	daraxt
		Chaenomeles japonica	buta
	Rosa	Rosa canina	buta
Rosa majalis		buta	
Malvaceae	Hibiscus	Hibiscus syriacus	buta
Chenopodiaceae	Haloxylon	Haloxylon aphyllum	buta
		Haloxylon persicum	buta
Polygonaceae	Calligonum	Calligonum caput	buta
Tamaricaceae	Tamarix	Tamarix Androssowii	buta

Jadvalda keltirilgan ninabargli daraxt-butalardan sarvidoshlar oilasiga mansub Juniperus virginiana va Platicladus orientalis, qarag'aydoshlar oilasiga mansub Pinus Pallasiana, yaproq bargli daraxt-butalardan zarangdoshlar oilasiga mansub Acer campestre va Acer negundo, zaytundoshlar oilasiga mansub Fraxinus excelsior, Fraxinus manschurica va Ligustrum vulgare dukkakdoshlar oilasiga mansub Sophora japonica, Gleditsia triacanthos, Robinia pseudoacacia va Amorfa fruticosa turlari, bignoniyadoshlar oilasiga mansub Satalra speciosa, tutdoshlar oilasiga mansub Morus alba va Maclura aurantiasa, toldoshlar oilasiga mansub Salix babylonica, Populus alba va Populus nigra, jiydadoshlar oilasiga mansub Elaeagnus orientalis va Hippophae rhamnoides, simarubadoshlar oilasiga mansub Ailanthus altissima, qayrag'ochdoshlar oilasiga mansub Ulmus pumila, zirkdoshlar oilasiga mansub Berberis integgerima, shamshodguldoshlar oilasiga mansub Vuxus sempervirens va ra'noguldoshlar oilasiga mansub Rosa canina turlarining fasliy o'zgarish hodisalari, tashqi muhitga bo'lgan munosabati va sanitar-gigienik ahamiyati ham o'rganilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baltaniyazov J., Madraimov R. Jasíl qaplama payda etiwde Seksewil ósimliginiń áhmiyeti hám kóbeytiw usılları // Tsentral`noaziatskiy jurnal obrazovaniya i innovatsiy. - 2023. - T. 2. - №. 10 Part 3. - S. 133-136.
2. Baltaniyazov J., Madraimov R. Orol dengizi qurigan tubida yashil qoplamalarni parvarishlash agrotexnikasi // evraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy. - 2023. - T. 3. - №. 10. - S. 156-158.
3. Baltaniyazov J.S., Kamalova N.B. Environmental and decorative properties linden leaved (*Tilia cordata*) under Karakalpakstan // Sovremennoe ekologicheskoe sostoyanie prirodnoy sredy i nauchno-prakticheskie aspekty ratsional`nogo prirodopol`zovaniya. - 2017. - S. 820-821.
4. Qayumov A., Boltaniyozov J.S. Dust-Holding Properties Of Wood And Shrub Species In The Conditions Of The Republic Of Karakalpakstan // The American Journal of Applied sciences. - 2020. - T. 2. - №. 09. - S. 170-174.
5. Sherniyazov K., Atamuratova K., Baltaniyazov J. Study of existing tree-shrub species in the conditions of the city of nukus // International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 5. - S. 1065-1067.
6. Sherniyazov K., Atamuratova K., Baltaniyazov J. Types of vegetative propagation of ornamental tree-shrub plants in landscaping // International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 5. - S. 1068-1070.